O'ZBEKISTON VA XITOY MUNOSABATLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA BUGUNGI KUNDAGI HAMKORLIK ALOQALARI

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar"ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi ***Asatullayev Bobur***

+998 93 232 22 45

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi munosabatlarining tarixiy shakllanish bosqichlari mustaqillikdan keying siyosiy,iqtisodiy va madaniy hamkorlik yo'nalishlari hamda bugungi kundagi va strategik sherikligining asosiy jihatlari ilmiy uslubda tahlil qilinadi. Hamda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy shakllanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mustaqillikdan keyingi davrda diplomatik va iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish xususiyatlarini ochib berish hamda bugungi kundagi strategik sheriklikning asosiy yo'nalishlarini yoritishdan iborat.*

Kalit so'zlar*: Buyuk ipak yo'li, diplomatik aloqalar, Bir kamar bir yo'l, strategik hamkorlik.*

Annotation: *This article scientifically analyzes the historical stages of the formation of relations between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China, the directions of political, economic, and cultural cooperation after independence, as well as the main aspects of their current strategic partnership. The study also aims to provide a scientific analysis of the historical development of relations between Uzbekistan and China, reveal the characteristics of diplomatic and economic cooperation in the post-independence period, and highlight the key directions of today's strategic partnership.*

Keywords: *Great Silk Road, diplomatic relations, Belt and Road Initiative, strategic cooperation.*

Аннотация: *В данной статье в научном стиле анализируются исторические этапы формирования отношений между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой, направления политического, экономического и культурного сотрудничества после обретения независимости, а также основные аспекты современного стратегического партнёрства. Также целью исследования является научный анализ исторического развития отношений между Узбекистаном и Китаем, раскрытие особенностей дипломатического и экономического сотрудничества в постсоветский период независимости, а также освещение основных направлений современного стратегического партнёрства.*

Ключевые слова: *Великий шёлковый путь, дипломатические отношения, инициатива «Один пояс — один путь», стратегическое сотрудничество.*

Bugungi glaballashuv davrida davlatlar o’rtasidagi siyosiy,iqtisodiy va madaniy hamkorlik xalqaro munosabatlar tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, geosiyosiy va strategik jihatdan muhim hudud hisooblangan Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan O’zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o’rtasidagi munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ikki davlat o’rtasidagi strategik hamkorlik nafaqat ikkitomonlama manfaatlarga, balki mintaqaviy barqarorlik va xavsizlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

O’zbekiston va Xitoy munosabatlari chuqur tarixiy ildizlarga egadir. Qadimgi Xan imperiyasi davrida miloddan avvalgi II asrga borib taqaladi. Xitoy imperatori U-Di ko’chmanchi Xun qabilalariga qarshi kurashish maqsadida o’z elchisi Chjan-Syanni Markaziy Osiyoga yuboradi.[1] O’sha davrda Yurtimiz hududida bir qancha davlatlar bor edi. Jumladan Farg’ona vodiysi va unga tutash bo’lgan hududlarda qadimgi Davan davlati mavjud edi.[2] Xitoy elchisi Chjan-Syan Markaziy Tyan-shan to’g’laridan o’tib Issiqko’lga yetib keladi va Norin daryosi bo’ylab F’arg’ona vodiysiga kelib qoladi. Tabiyki elchi imperator buyrug’iga binoan Davan davlati hukmdoriga Xunlarga qarshi harbiy hamkorlik taklif qiladi

lekin Davan davlati hukmdori faqat savdo,iqtisodiy hamkorlikka rozi bo'ladi. Keyinchalik xitoy elchisi janub tomon yurib Oloy vodiysi orqali Xitoyga qaytib ketadi. Shunday qilib, Chjan-Syan yurgan yo'l bo'ylab miloddan avvalgi II-I asrlarda Xitoyni Markaziy va G'arbiy Osiyo bilan bog'lovchi global ahamiyatga ega Buyuk ipak yo'li paydo bo'ldi va keyinchalik ushbu yo'l Sharq va G'arbni bog'lovchi asosiy savdo va madaniy yo'nalishga aylandi. Mazkur yo'l orqali Xitoydani pak,chinni buyumlar va boshqa mahsulotlar Marzakiy Osiyo orqali Yevropaga yetkazilgan bo'lsa, O'rta Osiyodan Xitoyga qishloq xo'jaligi mahsulotlari, otlar va hunarmandchilik buyumlari olib borilgan. Xitoy yozma manbalarida Markaziy Osiyo hududlari xususan Farg'ona vodiysi "Dayuan" nomi bilan tilga olingan.Xitoy manbalarida Davan davlatida dehqonchilik va otchilik yuqori darajada rivojlanganligi qayd etilgan bo'lib xususan Xitoy elchisi Chjan-Syan Xitoyga qaytib ketayotgan vaqtida o'zi bilan birga Davan davlati otini va beda urug'larini olib ketganligi haqida ham aytib o'tilgan.[3] Umumiy qilib aytganda ushbu davrda Markaziy Osiyo va Xitoy aloqalari o'rnatildi.

O'rta asrlarda ham Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar uzluksiz davom etdi. Elchilik missiyalari,savdo karvonlari Buyuk Ipak yo'li orqali jadal olib borilgan bo'lib xususan Xitoy qog'ozining siri aynan O'zbekiston orqali G'arbga yetib borganligi va milodiy 718-yilda Samarqanddan Xitoyga sovg'a tariqasida yuborilgan dubulg'adan nusxa olib Xitoy qurolsozlari butun qoshinni dubulg'a bilan taminlaganligi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.[4] Albatta tarixda bir qancha ziddiyatli vaqtlar ham bo'lgan. Masalan Amir Temur davlati va Xitoyning Min imperiyasi o'rtasidagi ziddiyatli vaziyat bunga yaqqol misol bo'ladi. Shunga qaramay ikki davlat o'rtasidagi aloqalar hech qachon butkul to'xtab qolmagan Amir Temurdan keyin Shoxrux Mirzo va Mirzo Ulug'bek davrida ham o'zaro elchilar almashinuvi kabi diplomatik va savdo aloqalari davom ettirildi.[5] Xonliklar davrida ham Xitoy bilan aloqalar davom etdi bu aloqalarda ayniqsa Qo'qon xonligi Xitoy bilan bevosita diplomatik aloqalarni olib bordi. Bir qancha ziddiyatlarga qaramay 1832-yil Pekinda ikki davlat kelishuv imzoladilar va ushbu

ikki tomonlama shartnomaga binoan Qo'qon xonligi Sharqiy Turkistondagi savdogarlardan soliq yig'ish huquqini oladi.[6] Ushbu davrda Xitoy bilan aloqalar har tomonlama kengaydi savdo,iqtisodiy,madaniy sohalar rivojlandi garchi bir qancha ziddiyatlarga qaramay Buyuk Ipak yo'li orqali ikki tomon ham foyda oldi. O'zbekiston Respublikasi 1991-yil mustaqillikka erishgach, tashqi siyosatda ko'p tomonlama va muvozanatli hamkorlik tamoyillarini asos qilib oldi. 1991-yil 27-dekabrda, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekistonni suveren davlat sifatida tan oldi. 1992-yil 2-yanvarda Xitoy Xalq Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi savdo vaziri Li Lansin O'zbekistonga tashrif buyurdi. Shu kuni ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi va elchixonalar ochish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1992-yil 12–14-mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning XXRga davlat tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikka mustahkam poydevor yaratdi. Tashrif davomida turli sohalarni qamrab olgan 15 ta muhim hujjat imzolandi.[7]

Mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar bosqichma-bosqich rivojlanib, bugungi kunga kelib keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga yetdi. Ayniqsa, savdo-iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika tizimlari, energetika, investitsiya va infratuzilma loyihalari ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning asosiy yo'nalishiga aylandi. Xitoyning "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi doirasida O'zbekiston Markaziy Osiyodagi muhim tranzit hudud sifatida alohida o'rin egallamoqda. Mazkur loyiha doirasida temir yo'l, avtomobil yo'llari, sanoat zonalari va energetika sohasidagi yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.[8] Bu esa nafaqat ikki davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga, balki butun mintaqaning transport va savdo salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar ham yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. Talabalar almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar, til o'rganish markazlari hamda madaniy tadbirlar xalqlar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro ishonchni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa,

Konfutsiy institutlari va o‘zbek tilini o‘rganishga qaratilgan dasturlar ikki xalqning bir-birini yaqindan anglashiga xizmat qilmoqda.[9] Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar doirasida ham ikki davlat o‘zaro hamkorlikni davom ettirib, mintaqaviy xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va barqaror taraqqiyot masalalarida yaqin pozitsiyani namoyon etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar qadimiy Buyuk Ipak yo‘li davridan boshlangan uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, bugungi kunda yangi mazmun va zamonaviy shaklda rivojlanmoqda. Tarix davomida shakllangan savdo, diplomatik va madaniy aloqalar hozirgi davrda strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi. Ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga ham xizmat qilmoqda. Kelajakda ham O‘zbekiston va Xitoy munosabatlari o‘zaro ishonch, teng manfaat va strategik hamkorlik tamoyillari asosida yanada mustahkamlanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. https://tarix.sinaps.uz/hodisa/xan-sulolasi
2. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. - T.:Sharq, 2000. -B.368.
3. Xo‘jayev A. Buyuk Ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007. – 280 b.
4. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар: Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар. - Фаргона, 2013. – 312 б.
5. To‘xtiyev I. Temur va temuriylar sulolasining tangalari. –T.: Fan, 1992. – B.87.
6. Sherali Qo‘ldashev. Qo‘qon xonligi va Xitoy(Ching imperiyasi) o‘ratsidagi diplomatik munosabatlar. –T.: 2019. – B.296.
7. https://kun.uz/news/2023/05/21/ozbekiston-xitoy-munosabatlari-xronologiyasi

8. https://www.gazeta.uz/oz/2025/09/02/bitim/
9. https://gov.uz/oz/edu/news/view/21066

[1] https://tarix.sinaps.uz/hodisa/xan-sulolasi

[2] Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T. Sharq. 2000. -B.368.

[3] Хўжаев А. Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар. Т., 2007. Б 149.

[4] Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар: Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар. Фаргона, 2013.

[5] To‘xtiyev I. Temur va temuriylar sulolasining tangalari. – Toshkent:“Fan”, 1992. – B. 87.

[6] Sherali Qo‘ldashev. Qo‘qon xonligi va Xitoy(Ching imperiyasi) o‘ratsidagi diplomatik
munosabatlar. Toshkent, 2019 y B.296.

[7] https://kun.uz/news/2023/05/21/ozbekiston-xitoy-munosabatlari-xronologiyasi

[8] https://www.gazeta.uz/oz/2025/09/02/bitim/

[9] https://gov.uz/oz/edu/news/view/21066